

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**



**MEDIAKONVERGENTSIYA VA TAHRIRIYAT ISHINI BOSHQARISH
FANINING O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 300000 – Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot
Ta‘lim sohasi: 320000 – Jurnalistika va axborot
Mutaxassislik: 70320101 – Jurnalistika


TOSHKENT – 2025

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti
Instituti direktori 28 2025




X.V. Mirzaxmedova

Tarjimashunoslik, tilshunoslik
va xalqaro jurnalistika oliy
maktabi boshlig'i 11 2025



S.T. Mustafayeva

ARM direktori 30 2025



M.M. Yuldosheva

Fan/modul kodi MTIB1106		O'quv yili 2025/2026	Semestr 1	ECTS - Kreditlar 6	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 6	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
	Mediakonvergentsiya va tahririyat ishini boshqarish	72	108	180	
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – media tili va uslubi fanining mashg'ulotlaric tilshunoslik masalalarini tahlil qilish va adabiy til meyorlarini puxta egallashlarig mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishga, ilmiy izlanish – tadqiq ishlari malakalarini shakllantirishga, nutq madaniyatini o'stirish, ya'ni og'zaki v yozma nutqni aniq, to'g'ri (adabiy talaffuz meyorlariga rioya qilgan holda), maqsadg muvofiq savodli bayon qilishga o'rgatish ko'zda tutilgan.</p> <p>Fanning vazifasi – o'rganilgan masalalar bo'yicha amaliy xulosalarni ishlc chiqish hamda uni mahalliy konvergent tahririyatlar amaliyotiga tadbic etishdc iborat. Mediakonvergentsiya va tahririyat ishini boshqarish mazmun-mohiyatit talabalarga tushuntirish, konvergent axborotni tayyorlashdan tortib, uni auditoriyaq taqdim etishgacha bo'lgan jarayonda multimediya vositalari ilmiy-nazariy jihatda tahlil qilinadi.</p> <p>Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarni nazariy bilimlar, amali ko'nikmalar, mediakonvergentsiyaga oid nazariy va amaliy yondashuv hamda sh sohadagi nozikliklarni tushunish, anglash, ishlay olish vazifasini bajaradi.</p> <p style="text-align: center;">Xorij tajribasiga muvofiqligi</p> <p>Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro'yxatga kiruvchii Vashington universiteti (AWRU 19) xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi:</p> <p>https://www.washington.edu/crscatt/tcom.html</p> <p>I. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi.</p> <p style="text-align: center;">1-mavzu. Mediakonvergentsiya va tahririyatlar boshqaruvi fanining maqsad va vazifalari</p> <p>Mediakonvergentsiya tushunchasi va uning zamonaviy media muhitidagi ahamiyati. Xalqaro tajriba. Mediakonvergentsiya va tahririyat ishini boshqarish fanining predmeti va uslublari. Fanning maqsad va vazifalari. Konvergent tahririyat va matbuot vizuallashuvi fanining ob'ekti va sub'ekti. Mazkur fanni o'zlashtirishda umumkasbiy, nazariy va boshqa fanlar bilan ham uzviyiligi tushuntiriladi.</p>				

2-mavzu. G'arb va sharqda mediakonvergensiya: umumiylik va o'ziga xoslik

G'arbda mediasida konvergensiya jarayonining boshlanishi. Sharqda bu tendensiyalarning rivojlanishi. Yirik nashrlarning mediakonvergensiya jarayoniga o'tish bosqichlari, ular tanlagan pozitsiya va yondashuvlar. Ushbu mavzu orqali g'arb va sharq mediakonvergensiya solishtirilib, umumiy va o'ziga xos jihatlari aniqlanadi.

3-mavzu. AQSh va Rossiyada mediakonvergensiya jarayonidagi tahririyatlar taktikasi

AQSh bosma tahririyatlarining konvergensiya jarayoniga moslashuvi. Rossiya tahririyatlarining bu sharoitdagi pozitsiyasi, yondashuvlari. Bu jarayonda jurnalist faoliyatining kengayishi, axborot uzatishdagi yondashuvlar, auditoriya kontentining yuzaga kelishi va rivojlanishi kabi holatlar faktlar misolida tahlil qilinadi.

4-mavzu. Bosma ommaviy axborot vositalarini tahrirlash va loyihalash

Bosma ommaviy axborot vositalarini tahrirlash va loyihalash elementlarini qamrab oladi, jumladan: yangiliklar nusxasini tanlash va tahrirlash; sarlavha yozish; tipografiya; fotosuratlarini tanlash, masshtablash va kesish; joylashtirish funksiyalari; nashrni loyihalash tamoyillari va ularning amaliy qo'llanilishi. Talabalar, shuningdek, jamoalarning bir qismi sifatida bir nechta sahifa dizayni loyihalarini bajaradilar.

Mediakonvergensiya sharoitida tahririyatlar uchun menejmentning zarurati. U sohada olib borilgan ilmiy izlanishlar hamda yondashuvlarning qisqacha tasnifi. Bu borada soha yetakchilari qo'yilayotgan zamonaviy talablar.

5-mavzu. O'zbekistonda bosma konvergent tahririyatlarining tuzilmasi va tahririyat ijodiy ishini tashkil etish masalalari

Yirik kompaniyalarning bozor pozitsiyasi (yetakchilik, raqobat va hokozolarni saqlab qolish zarurati). Katta tizimli ommaviy axborot vositalarida bir vaqtning o'zida taklifni standartlashtirishi, ikkinchisi uni diversifikatsiyalashga intilishi. Bir necha platforma uchun bir armiyani ishlatishdagi ish samaradorligi ko'rsatkichlari. O'zbekiston tahririyatlarining tuzilmasi, ishni qanday yo'lga qo'yishi hamda ijodiy muhitini boshqarishdagi professional yondashuvi ko'rib chiqiladi.

6-mavzu. Jamoatchilik bilan aloqalar uchun yozma nusxa

Jamoatchilik bilan aloqalar yozishning aspektlarini, jumladan bosma va efirga uzatiladigan press-relizlar, reklama nusxalari, nutqlar, axborotnomalar va inqirozli aloqalarni qamrab oladi. Yozishda aniqlik va qiziqish, murakkab masalalarni soddalashtirish va ommaviy axborot vositalari bilan samarali muloqot qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

7-mavzu. Media kontent yaratish va tahririyat yo'nalishini aniqlashda auditoriyani o'rganishning dolzarbligi.

Kontent va media kontent tushunchalari. Kontentning turli ijtimoiy sohalarda qo'llanila boshlanishi. Janr, shakl va format tushunchalaridagi o'zgarishlar. Mediakontentga qo'yiladigan talablarning o'zgarishlari tahlil qilinadi. Auditoriya

tushunchasi. Auditoriya turlari. Avlodlar nazariyasi tushunchasi va uning media mahsulot tayyorlashdagi ahamiyati. Auditoriyaning bugungi ehtiyojlarini aniqlash. Auditoriya talabi va bugungi media mahsulotlarning mutanosibligini o'rganish.

8-mavzu. Konvergent jurnalistikada janrlar qorishuvi va uning tahririyat faoliyatiga ta'siri

Janr tushunchasi. Janrlar integratsiyasini mediakonvergeniya jarayonining hosilasi sifatida o'rganish. Bosma va onlayn nashrlarga kontent tayyorlashda janrlardagi o'zgarishlarni solishtirish. Gibril janrlar tasnifi.

9-mavzu. Tahririyat ishi samaradorligida konvergent jurnalist portreti va psixologik aspektlar

Mediakonvergeniya jarayonida bosma nashr jurnalisti portretidagi o'zgarishlar. Jurnalistga qo'yilayotgan yangi talablar. Bu jarayonga moslashishda jurnalist psixologiyasidagi o'zgarishlar. Konvergent tahririyat muhitida jurnalist uchun ijodiy imkoniyatlar doirasining kengayishi. Bu media mahsulotlar shaxsiy «chegarasining» kengayishi, materialni turli xil platformalarda kreativ tarzda taqdim etish, shuningdek, ma'lum eskirgan operatsiyalar qismlarini ijod hududidan olib chiqishda namoyon bo'lishi o'rganiladi.

10-mavzu. Ommaviy axborot vositalari uchun matn yozish

Bosma, onlayn va radioeshittirish vositalari uchun yozish asoslarini o'rganadi. Yangiliklarni yig'ish va yozishning asosiy tamoyillarini nashr qilinadigan maqolalar tayyorlash uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar bilan birlashtiradi.

11-mavzu. Mediakonvergeniya va gibril mutaxassislarining dunyoga kelishi

Nashrlarda jurnalistlar o'rniga yangi gibril mutaxassisliklar vakillariga talabning ortib borayotgani. Gibril mutaxassisliklarning tasnifi. Odatiy kontent-menejerlardan tashqari, ular axborot ekranlari uchun video materiallar ishlab chiqaruvchilari, Internet-loyihalar ishlab chiqaruvchilari, loyiha menejerlari, info-dizaynerlar va boshqalarning bo'lishi.

Barqaror jurnalistika markazi notijorat tashkilotiga ko'ra, yaqin kelajakda har qanday OAV tahririyatining professional manzarasini to'ldiruvchi kasblar ro'yxati bilan tanishtiriladi.

12-mavzu. Mediakonvergeniya sharoitida tahririyat xodimlarining axborot texnologiyalari va multimediyaviy vositalaridan foydalanishi

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari inqilobi jurnalistikada yangi universalizmning paydo bo'lishi va eski tushunchaning kengayishiga olib keldi. Bugungi kunda universal muxbir, bu — raqamli davr jurnalisti, konvergeniya jarayonining hamma narsaning boshida, keng ma'noda, kontentni bir martalik ishlab chiqarish va uni turli xil axborot platformalarida takroriy tayyorlashga asoslanishi.

Jurnalistikaning innovatsion usullari: kraudsorsing, bulutli texnologiyalar, ma'lumotlar bazalari, multimediyaviy storiy-telling, infografika, karta, Old-new

texnologiyasi kabi multimediya vositalari hamda ulardan foydalanish ko'nikmalari egallanadi.

13-mavzu. Bosma va onlayn nashr tahririyati: maqola vvorstkasi, matn tahriri. Multimediyaviy matn tushunchasi

Bosma nashrning onlayn kontenti tushunchasi. Bosma va onlayn kontent uchu ishlaydigan armiya tasnifi. Bir materialning turli platformalarda foydalanishda vvorstkalash jarayoni, matndagi til va uslubiy o'zgarishlar. Matnda multimediya unsurlarni aniqlash va shu bilan birgalikda nashrning onlayn kontenti uchun multimediyaviy matn tayyorlash ko'nikmasi shakllantiriladi.

14-mavzu. Global televideniye: format, janr va qabul qilish

Dastur global televideniye ni o'rganishning dolzarb muammolari va mavzulariga qaratilgan. U transmilliy kontekstda serial va realiti-TV kabi televizion janrlarning rivojlanishi va evolyutsiyasini tushunish uchun butun dunyo bo'lab televizion formatlarning bir nechta misollarini ko'rib chiqadi.

15-mavzu. An'anaviy va onlayn matn yaratishda uslub masalalarining dolzarbligi. (Hududiy tahririyatlar faoliyati misolida)

Hududiy va mahalliy nashrlarda onlayn kontent yaratishning bugungi manzarasi. Bosma nashr kontentining onlayn versiyaga o'tishida uslub masalalari. Bu borada yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar. Konvergent jurnalist bilishi muhim bo'lgan jihatlar hududiy nashrlarning komparativ tahlili misolida o'rganiladi.

16-mavzu. Tanqidiy media savodxonligi

Mahalliy va global nuqtai nazardan tanqidiy savodxonlikni rivojlantirish uchun zamonaviy ommaviy axborot vositalarining tarixiy, iqtisodiy va madaniy kontekstini o'rganadi. Kino, televidenie, jurnalistika, interaktiv va ijtimoiy media, sport va yoshlar ommaviy axborot vositalarida kuch tuzilmalari va ishonirish vositalarini tushunish uchun media xabarlarini tahlil qiladi.

17-mavzu. Konvergent tahririyat auditoriyasini kengaytirishda SEO optimizatsiya, YouTube platformasi va QR-koddan foydalanish

SEO optimizatsiya tushunchasi. Yuqori chastotali qidiruv tizimlari. O'rtacha va past chastotali qidiruv tizimlari. «Dlinnyy xvost» texnologiyasi tasnifi. Saytning yuklanish tezligini aniqlash platformalari. Google uchun sarlavha tanlash texnologiyalari. Foydalanuvchilarni jalb qilish va ushlab qolish yo'llari va boshqalar to'g'risida bilim va ko'nikmalar beriladi.

YouTube platformasi va uning bugungi kundagi mavqeyi. QR-kod tushunchasi va uning konvergent tahririyat auditoriyasini kengaytirishdagi o'rni. Bir materialni turli platformalarda uzatishning o'ziga xosliklari. Bu jarayonda duch kelinadigan ijodiy, malakaviy, iqtisodiy va auditoriyaga oid muammolar ko'lami hamda unga doir yechimlar tahlil qilinadi.

18-mavzu. Konvergent tahririyatlar oldidagi muammolar va ularning yechimi

Fanni umumlashtiruvchi ushbu mavzuda konvergent tahririyatlar oldidagi iqtisodiy, malakaviy, ijodiy kabi qator muhim muammolar o'rganiladi. Bunda xalqaro tajriba hamda mahalliy tahririyatlar faoliyati qiyosiy tahlil etiladi va kerakli xulosalar chiqariladi.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.(Seminar mashg'ulotlari)

Seminar mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Mediakonvergensiya va tahririyat ishini boshqarish fanining maqsad va vazifalari.
2. G'arb va sharqda mediakonvergensiya: umumiylik va o'ziga xoslik.
3. AQSh va Rossiyada mediakonvergensiya jarayonining o'ziga xosliklari.
4. Mediatahririyatlar boshqaruvini tashkil etishga qo'yiladigan zamonaviy talablar
5. O'zbekistonda bosma konvergent tahririyatlarining tuzilmasi va tahririyat ijodiy ishini tashkil etish masalalari.
6. Kontent yaratishda auditoriyani o'rganishning dolzarbligi.
7. Konvergent jurnalistikada janrlar integratsiyasi.
8. Konvergent jurnalist portreti va psixologik aspektlar.
9. Mediakonvergensiya va gibrid mutaxassislarining dunyoga kelishi.
10. Konvergent jurnalistning axborot texnologiyalari va multimediya vositalaridan foydalanishi.
11. Bosma va onlayn nashr: maqola vyorstkasi, matn tahriri. Multimediyaviy matn tushunchasi
12. An'anaviy va onlayn matn yaratishda uslub masalalarining dolzarbligi. (Hududiy nashrlar misolida)
13. Konvergent tahririyat auditoriyasini kengaytirishda YouTube platformasi va QR-koddan foydalanish.
14. YouTube kontentni rivojlantirishda tahririyat pozitsiyasi, ijodiy boshqaruvi.
15. Mediakonvergensiya sharoitida bosma tahririyat menejmentini rivojlantirish oldidagi muammolar va ularning yechimi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

- "Yangi O'zbekiston" va "Xalq so'zi" tahririyatlarining mediakonvergensiya moslashuvini taqqoslash;
- "Ishonch" gazetasining mediamarkazi faoliyatini tahlil qilish;
- "Darakchi" gazetasida axborot texnologiyalaridan foydalanishdagi ilg'orlik;
- "The New York Times" gazetasining axborot texnologiyalardan foydalanishdagi yondashuvlarini o'rganish;
- "The Economist" jurnalining multimediya vositalarini qo'llash usullarini tahlil qilish;

	<ul style="list-style-type: none"> • “Euronews” misolida Rossiya tahririyatlari faoliyatini tahlil qilish; • Multimediyaviy storiytellingga misollar topish; • YouTube platformasida faoliyatini samarali yo‘lga qo‘ygan konvergent tahririyatlar ishini tahlil qilish; • Reklama, marketingga ixtisoslashgan jurnallar pozitsiyasi: yangi bosqich (“The developer”, “The Mag”, “To‘ylar muborak”...) • Gazetadagi maqolani SEO optimizatsiya texnologiyalari orqali vryostkalash. • “Yuz.uz” va “Daryo.uz” saytlarida axborot uzatish uslublarini ko‘rib chiqish; • “Farg‘ona haqiqati” tahririyatida auditoriyani ushlab qolish usullari; • “Zarnews” da xodimlar ishini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish strategiyasi. • Xududiy nashrlar dizayni, yutuq va kamchiliklar; • Sahifalashda shriftlarni to‘g‘ri qo‘llay bilish mahorati; <p>Mazkur fan bo‘yicha kurs ishi yozish ko‘zda tutilmagan.</p>
3.	<p style="text-align: center;">V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p><i>Talaba bilishi kerak:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> • Konvergent tahririyat tushunchasi, mediakonvergensiya tarixi va rivojlanish omillari to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lishi (bilim); • Multimediyaviy vositalardan samarali foydalangan hamda auditoriyani o‘rgangan holda ikki xil platforma — gazeta hamda saytga material tayyorlay olishi (ko‘nikma); <p>Talaba mediakonvergensiya jarayonlarini kuzatishi, tahlil qila olishi, konvergent tahririyatlar faoliyatidagi mavjud muammolarni ilg‘ab, tegishli yechimlarni bera olishi (malaka) kerak.</p>
4.	<p style="text-align: center;">VI. Ta‘lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Ma‘ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; <p>jamo bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</p>
5.	<p style="text-align: center;">VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish</p>

6.

Asosiy adabiyotlar

1. Баранова Е.А. Конвергентная журналистика. Теория и практика: учебное пособие для бакалавра и магистратуры. -М.: Научное издание.Люберы: Юрайт,- 2021. - 269 с.
2. Потребин А.В. Деловая аналитика. Бизнес-журналистика : учеб.-метод. Пособие. - Минск : БГУ, - 2023. – 135 с.

Qo'shimcha adabiyotlar

11. Mirziyoyev. Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. - Toshkent: O'zbekiston, 2024.
12. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 2023
1. Mo'minov F. Antik davrda jurnalistikadan oldingi ko'rinishlar. Jurnalistika nazariyasi, tarixi va taraqqiyoti. -T.: "O'zbekiston". 2019.
2. Nurmatov A. Jurnalistikada konvergensiya hodisasi. "Zamonaviy bosma OAV muammolari: xalqaro va milliy tajriba" respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. -T.:2020.
3. Лазутина Г.В. Жанр и формат в терминологии современной журналистики. Вестник Московского университета Серия 10. 2010.
4. Qozoqboev T., Xudoyqulov M. Jurnalistikaga kirish. -T.: "Iqtisod-moliya". 2018.
5. Saidov H. Jurnalistikada axborot janrlari. Bosma ommaviy axborot vositalarida janrlar va mahorat masalalari, V jild. "O'zbekiston". -T.: 2019.
6. Dadaxonov A.O. Mediakonvergensiya sharoitida jurnalistik faoliyat va ta'limdagi innovatsiyalar. // So'z san'ati xalqaro jurnali. – T.: 2020. 1-son, 3-jild. 72-b.
7. Aytbaeva D. Bosma nashrni saqlab qolishda onlayn kontentning ahamiyati. "Zamonaviy bosma OAV muammolari: xalqaro va milliy tajriba" respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. -T.:2020.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati: 8000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. J.P.ye-M/ Tahrir hay'ati: T.Mirzaev (rahbar) va boshq.; O'zR FA til va adabiyoti in-ti. — T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2002.

Skopus maqolalari

Matthew Bird-Meyer, Sanda Erdelez, Jenny Bossaller "The role of serendipity in the story ideation process of print media journalists"

<https://www.sciencedirect.com/org/science/article/abs/pii/S0022041819000031>

Internet manbalar:

www.pr.uz

www.lex.uz

www.zivo.uz

www.norma.uz

	<p>Fan dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jurnalistika oliy maktabi tomonidan ishlab chiqilgan va 2025-yil "18" 06 dagi 24-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.</p> <p>Fan dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2025-yil "28" 06 dagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.</p>
8.	<p>Fan/modul uchun mas'ullar: M.K.Saliyeva – TDSHU, Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jurnalistika oliy maktabi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi. R.T.Elmuratova – TDSHU, Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jurnalistika oliy maktabi stajyor-o'qituvchisi</p>
9.	<p>Taqrizchilar: M.Yunusov – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huuuzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha (PhD) falsafa doktori (turdosh OTM) Sh.N.Tayloqova – O'zJOKU, internet jurnalistikasi kafedrasini mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).</p>

Conf.